

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Begnazarova Shoiraxon Baxtiyor qizi,

Talaba, Toshkent kimyo-texnologiya instituti,

E-mail: begnazarovashoira@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko‘pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko‘p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat’i nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog‘liq. Mustaqil respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ekologik vaziyat, atrof-muhit muhofazasi, ekologik partiya, ekologik nazorat, davlat nazorati, ekologik savodxonlik.

THE IMPORTANCE OF ONGOING REFORMS AND INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION

Abstract: Today, the environmental situation around the world worries many equally. One of the urgent problems is the issues of environmental protection and the effective use of available natural resources. The preservation of the environment from pollution, the careful use of natural resources largely depends on the level of environmental literacy and ecological culture of a person, in whatever society he or

she lives. To solve environmental problems in our independent republic, improving the environmental literacy of the population is one of the priorities.

Key words: environmental situation, environmental protection, environmental party, environmental control, state control, environmental literacy.

Butun dunyodagi ekologik vaziyat nafaqat bir davlat aholisining jipslashib harakat qilishi balki, yerda mavjud bo'lgan barcha davlatlarning atrof-muhitni muhofazasi uchun o'zaro hamkorlikda chora tadbirlar ko'rishga majbur etmoqda. 1974-yilda BMTning atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishga bag'ishlangan maxsus bosh sessiya o'tkazildi. Unda “Yangi xalqaro ekologik tartiblarni o'rnatish haqida Dekloratsiya” tasdiqlandi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, bu kabi ishlarga ilk bor O'zbekiston Respublikasi 1992-yilda iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Konvensiyalarga qo'shilish orqali ilk qadamlar qo'yildi. O'zbekiston 1992-yilda imzolangan MDH Davlataro Ekologiya Kengashining teng huquqli a'zosi hisoblandi. O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonunlar qabul qilindi. Shunday qonunlardan biri 2017-yilning 21-aprel sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida” farmoni imzolandi. Farmonda Respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olish, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadlari ko'zda tutulgan. O'tgan 2019-yilning 9-yanvarida ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida yangi “O'zbekiston Ekologik partiyasi” ta'sis etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilishda bir qancha ishlar olib

borilmoqda. Misol uchun: 2017-yilda BMT bilan hamkorlikda “Ekologik hafatlik-2017” bo‘lib o‘tdi. Ushbu hafatlik davomida uchrashuvlar, “yashil” konsertlar, ko‘rik- tanlovlar, hududlarni tozalash bo‘yicha ekologik aksiyalar, tuman va viloyatlarda, Toshkent shahrida yirik ko‘rinishga ega turli tadbirlar bo‘lib o‘tdi. 2018-yilda “O‘zekspomarkaz”da Markaziy Osiyo xalqaro ekologia forumi bo‘lib o‘tdi va “Chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari. Atrof-muhit muhofazasi. Energiya tejamkorligi va energiya tejamkorligi-GETCA 2018” ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmasi ochildi. Ilk bor o‘tkazilgan bu ko‘rgazmada O‘zbekiston, Fransiya, Germaniya, Italiya, Shveysariya, Daniya, Chexiya, Vengriya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi 13 mamlakatdan 40 ga yaqin kompaniyalar ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 3 oktyabrdagi PQ-3956-son Qaroriga muvofiq: Davlat ekologiya qo‘mitasi tarkibidagi Bioxilmaxillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va chiqindilarning hosil bo‘lishi, to‘planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko‘milishi va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiyasi negizida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha inspeksiyasi tashkil etildi. Ushbu inspeksiyaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o‘simlik dunyosi, atmosfera havosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish;

– o‘simlik va hayvonot dunyosi ob’ektlarining mavjud bo‘lishi, turlarining xilma-xilligini, tabiiy turkumlari yaxlitligini va ularning yashash muhitini saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– chiqindilarni yig‘ish punktlarini tashkil etish, ularni o‘z vaqtida olib chiqish, ruxsat etilmagan chiqindixonalarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, chiqindi poligonlarini boshqarish, ularni utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko‘mish va realizatsiya qilishni belgilangan tartibda nazoratga olishni tashkil etish;

– fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishda hamkorlik qilish.

2020-yilning 9 oyi davomida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha inspeksiya faoliyatining natijalari quyidagicha:

O‘tkazilgan davlat ekologik nazorati natijalariga ko‘ra 2020 yilning 9 oy davomida respublika miqyosida 37 543 ta (2019 yil 9 oy davrida 23 284 ta) qonunbuzarlik holatlari aniqlangan (shundan 618 nafari mansabdor shaxs).

Huquqbuzarlarga nisbatan belgilangan jarima 16 800 mln. so‘m (2019 yil 9 oy davrida 8 445 mln.so‘m).

Tabiatga yetkazilgan zarar 15 133 mln. so‘m (2019 yil 9 oy davrida 5 847 mln. so‘m).

1457 ta holat bo‘yicha 11 788 mln. so‘m jarima va tabiatga yetkazilgan zararni undirish maqsadida to‘plangan hujjatlar tegishli organlarga (sud, prokuratura, MIB, IIB) kiritildi.

60 mingdan ortiq korxonalar va fuqarolarga sohaga oid profilaktika tadbirlari o‘tkazilgan.

22 ta holat bo‘yicha 8 810 mln. so‘mlik (Xorazm - 3, Qashqadaryo - 2, Buxoro - 5, Samarqand - 3, Qoraqalpog‘iston Respublikasi - 2, Toshkent shahar - 7) da‘vo ishlar yuzasidan qonunbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atilgan.

Ekologik muammolarni hal qilish uchun avvalo aholiga, ayniqsa, yoshlarga chuqur bilim, tarbiya berishni yaxshilash, korxonalarda ekologik jihatdan saqlab texnologiya yaratish, o‘simlik va hayvonot dunyosini, atmosfera havosini, suvni, yerni muhofaza qilish kabi tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. P.S.Sultonov. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari”, Darslik., Toshkent-2007.
2. Erkinova Sh.D., “Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari” 1(2)-son. 159-162. (2022)
3. <https://fayllar.org/>
4. <https://www.uznature.uz/>